

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

8-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/8 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTONDA TURIZM VA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH: SAMARQAND VILOYATINING SALOHIIYATI	8-11
--	------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayarova Zuhra, Turayev Baxtiyor</i> HUDUDDA ASALARICHILIK FAOLIYATINING UY XO'JALIKLARI DAROMADLARIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH	12-22
<i>Dr. Abror Kucharov, Dr. Jyoti Meshram</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF INDIAN INVESTMENT IN CENTRAL ASIA AND ITS RELEVANCE FOR UZBEKISTAN	23-32
<i>Qodirov Abubakr, Egamberdiyev Muzaffar</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING TAYANCH HUDUDI: FARG'ONA VILOYATI VA UNING IQTISODIY TARMOQLARI	33-37

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUF ESTETIKASIDA GO'ZALLIKNING TARBIYAVIIY POTENSIALI	38-43
--	-------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Muxammadieva Mashxura, Amirqulova Gulxayo</i> TIBBIY TERMINOLOGIYANI O'QITISHDA ZAMONAVIIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	44-49
<i>Naimova Parvina Rustamovna</i> O'ZBEK TILIDA HAYVON OBRAZLARINING FRAZELOGIZMLARDA VA MAQOLLARDA INSON XARAKTERI VA XULQINI IFODA ETISHI	50-54
<i>Tashxujayeva Nigora Madaminjanovna</i> FRAZELOGIK BIRLIKLARDA MIFOLOGEMALARNING KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILI	55-58

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Zokirov Sherzod</i> MAHALLIIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI QARORLARI QONUNIYLIGI USTIDAN PROKUROR NAZORATINI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	59-65
<i>Mirzaabdullayeva Matluba Rustamovna</i> YER SERVITUTINI RIVOJLANISHI	66-70
<i>Uzbekova Dilshoda Tulkinovna</i> ИСТОРИЯ И РАЗВИТИЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ПРИНУЖДЕНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	71-80

<i>Yo'ldoshev Ilhom Abdujalil o'g'li</i> KIBERKORRUPSION JINOYATLAR BO'YICHA AYRIM ILMIY-NAZARIY MULOHAZALAR	81-87
<i>Adizov Alibek Oybek o'g'li</i> ZARARNING TO'LIQ QOPLANISHI MUNOSABATI BILAN JINOYAT ISHLARINI SUDGACHA TUGATISH: NAZARIY VA AMALIY MASALALAR	88-94
<i>Xoligova Gavhar Ramazon qizi</i> CHET EL ELEMENTI BILAN MURAKKABLAHGAN ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY HUQUQIY JIHATLARI	95-99
<i>Низомова Настарин Владимировна</i> МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В СФЕРЕ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЯПОНИИ И УЗБЕКИСТАНА	100-107
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>To'raeva Gulchiroy Sheralievna</i> RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH	108-114
<i>Xodjayev Anvar Zakirovich</i> OG'IR ATLETIKADA DAST KO'TARISH MASHQINI BAJARISHGA O'RGATISH USLUBIYATI	115-125

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES

Received: 31 August 2025

Accepted: 15 September 2025

Published: 30 September 2025

Article / Original Paper

**DEVELOPMENT OF TOURISM AND ECOTOURISM IN UZBEKISTAN:
THE POTENTIAL OF THE SAMARKAND REGION**

Choriyeva Nargiza Ibotovna

Phd student

Uzbekistan State World Languages University

Abstract. The article analyzes the current challenges and opportunities for developing tourism, particularly ecotourism, in Uzbekistan's market economy. Measures to expand tourism infrastructure based on the historical, cultural, and natural potential of the Samarkand region are discussed. The article also highlights the interest of domestic and foreign tourists in ecological tourism and its prospects.

Keywords: tourism, ecotourism, Samarkand region, infrastructure, domestic tourism, economy, tourism potential.

**O'ZBEKISTONDA TURIZM VA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH:
SAMARQAND VILOYATINING SALOHIYATI**

Choriyeva Nargiza Ibotovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

1-bosqich tayanch doktoranti

Email: choriyevanargiza257@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti sharoitida turizm, xususan ekoturizm sohasini rivojlantirishning dolzarb muammolari va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Samarqand viloyatining tarixiy, madaniy va tabiiy salohiyati asosida turizm infratuzilmasini kengaytirish choralari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ichki va xorijiy turistlarning ekologik sayyohlikka bo'lgan qiziqishi va bu yo'nalishdagi istiqbollar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: turizm, ekoturizm, Samarqand viloyati, infratuzilma, ichki turizm, iqtisodiyot, sayyohlik salohiyati.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI8Y2025N01>

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekistonda turizm sohasini barcha tarmoqlarini, jumladan ekoturizmni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yuzaga kelayotganligi, turizmning respublika iqtisodiyotiga yanada integratsiyalashuvi mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bularning barchasi chet ellik turistlar e'tiborini o'ziga tortadi. Shuningdek, ichki turizmni rivojlanishi natijasida O'zbekiston fuqarolari ekoturistik obyektlarga tashrifi orqali ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi ona yurtga nisbatan milliy iftixor hamda g'urur tuyg'usini shakllanadi. Ekoturizmni rivojlantirishda O'zbekistonda mavjud bo'lgan siyosiy barqarorlik ham muhim o'rin tutadi. Ayni paytda mamlakat hududlarida zamonaviy turizm infratuzilmasini yaratish chora-tadbirlariga alohida e'tibor berilishi hududlar turizmni barcha yo'nalishlarini rivojlanishini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Samarqand viloyati ulkan sayyohlik salohiyati mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy

hayotida muhim o‘rin tutadi. Bu o‘lkaning betakror tarixiy obidalari, so‘lim tabiati, ayni paytda bag‘rikeng va mehmondo‘st xalqi, shirin-shakar, sarxil mevalari, eng muhimi, qulay infratuzilma tarmoqlari keyingi yillarda viloyatning turistik salohiyatini yanada rivojlantirish maqsadida yaqin besh yilda viloyatda 179 dan ziyod yangi mehmonxona qurish va 12 ta mehmonxonani kengaytirish mo‘ljallanmoqda.[1, B.178]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-dekabrdagi “Samarqand viloyatining turizm va transport salohiyatidan samarali foydalanish, viloyatni “Samarqand — yangi O‘zbekistonning turizm darvozasi»konsepsiyasi asosida rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-455 sonli qarori tasdiqlandi. Ushbu qarorda Samarqand viloyatiga xorijiy va mahalliy turistlar oqimini ko‘paytirish, yangi turizm infratuzilmasi obyektlari salohiyatidan samarali foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, yangidan modernizatsiya qilingan Samarqand xalqaro aeroportida xorijiy aviatashuvchi kompaniyalar uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, hududning transport-logistika tizimini rivojlantirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada yaxshilash va diversifikatsiya qilish masalalariga alohida urg‘u qaratilgan.[2, B.448]

Muhokama. Samarqand uzoq yillar davomida tarixiy shahar sifatida sayyohlarni jalb etgan bo‘lsa, endilikda turizmning boshqa yo‘nalishlari, xususan, ekoturizmni rivojlantirish muhim masalaga aylanyapti. Buning bir necha sabablari bor.

Birinchidan, tarixiy obyektlarni ko‘rish, bir necha soat, boringki, bir kunda “bitadigan” jarayon. Sayyohlarning hududda ko‘proq bo‘lishiga erishish esa byudjet uchun ham, sayyohlarga xizmat ko‘rsatuvchi mahalliy aholi uchun ham daromad nuqtai nazaridan juda muhim. Ikkinchidan, dunyoda zamonaviy turizmning eng muhim yo‘nalishiga aylangan ekoturizm atrof-muhitni muhofaza qilishni taqozo etadi, biorangbaranglikni, tabiiy resurslarni saqlash va hatto kengaytirish, umuman ekologiya uchun beqiyos ahamiyatga ega. Shu bilan birga madaniy merosni ham asrash va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishda juda katta o‘rin tutadi. Aholiga yangi ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiy rivojlanish imkoniyatini beradi. Sayyohlar tomonidan sarflanadigan mablag‘ o‘sha hududni boy qiladi. Ekoturistik hududlarda infratuzilma yaxshilanishi bilan bir qatorda hudud aholisi mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish, transport xizmatlari kabi qator sohalarda band bo‘ladi.[3] Samarqand viloyati ulkan sayyohlik salohiyatiga ega bo‘lib, mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida muhim o‘rin tutadi. Rivojlangan infratuzilma har qanday hududda ekologik turizmni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega va ekologik turizmni rivojlantirish infratuzilmani rivojlantirishga imkon beradi, aholining turmush darajasini yaxshilaydi va atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishga oshirishga yordam beradi. [4, B.158]

O‘zbekistonga turistik yoki xususiy yo‘nalish bo‘yicha tashrif buyuruvchi shaxslarni kamida 10% o‘z sayohatlarining ekologik jihatlari bilan qiziqadi: ular yoki tabiiy hududlar (bog‘lar, tog‘lar, o‘rmonlar, ko‘llar) ga tashrif buyurishadi, yo bo‘lmasa, yaqinroq qishloq joylarga bir kunlik ekskursiya qilishadi. Ularning kamida 60 % aralash turga ehtiyoj sezishadi, xususan, etnografiya bilan ekologiyaga qiziqishadi. [5, B.29]

Mamlakatimizda hozirgi kunda milliy bog‘larimizdan ekoturizm obyekti sifatida foydalanmoqdamiz, tabiat qo‘riqxonalaridan ekoturizmga foydalanishga hozircha ruxsat berilmagan. Mamlakatimizda aholining ekologik madaniyati va ekologik bilimlarini oshirish, tabiatni muhofaza qilish qonunlarini yaxshi bilish va hurmat qilish, tabiat resurslarini muhofaza qilish dasturlariga ixtiyoriy hamkorlik qilish ishlariga tayyorlash, ekoturizmning

tartib-qoidalarini, tamoyillarini o'rgatish kabi amaliy ahamiyatga ega. Ekoturizm — tabiiy muhitga nisbatan mas'uliyat bilan sayohat qilish, tabiiy hududlarni ularga ziyon yetkazmagan holda o'rganish, hamda tabiatning betakror, o'ziga xos joylaridan zavq olish maqsadida tabiatni muhofaza qilishga, mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilashiga yordam beradi.

Ekoturizmning tamoyillari ekoturizm yo'nalishining rivojlanishidagi tartib me'yorlari asosida belgilanadi. Ya'ni ekoturizmning tamoyillari ekoturizmning mohiyatini, mazmunini, maqsadi va vazifalarini o'zida aks ettirishi kerak.

Hozirgi kunda ekoturizm birmuncha yangi ko'rinishdir. Uni ommalashtirish kerak. Birinchi navbatda ekoturizm nafaqat iqtisodiyotga balki mahalliy aholi uchun ham foydali ekanligini, shuningdek ekoturizm tabiatni saqlashning eng oqilona ekanligi haqida tushuntirish ishlarini olib borish kerak. O'sha hududda yashovchi aholini shu sohada ishlashga jalb qilish lozim ya'ni ular mutaxassis kadr sifatida ish

olib borishlari lozim. Ekoturizmni rivojlantirish maqsadida fuqarolarda ekologik madaniyatni, ta'lim-tarbiyani shakllantirish talab etiladi. Ayni paytda ekoturizm va unga tegishli tashkilotlar to'g'risida to'laqonli ma'lumot bera oladigan axborot resurslarini yaratish va takomillashtirish lozim.

Ayni paytda ekoturizm va unga tegishli tashkilotlar to'g'risida to'laqonli ma'lumot bera oladigan axborot resurslarini yaratish va takomillashtirish lozim. Shu bilan birgalikda shahar tashqarisida joylashgan kichik mehmonxonalar va guest house'larga litsenziya olish tartibini soddalashtirish kerak. Va asosiysi, bu yerda turizmning rivojlanishi tabiatga zarar yetkazmasligiga, keluvchi kapital urf-odatlar va asosiy elementlarning yo'qolib ketishiga olib kelmasligini nazorat qilish talab etiladi.[6, B.261]

Hozirgi kunda turizmni rivojlantirish bo'yicha islohotlarimiz, qulay investitsiyaviy muhit yaratish bo'yicha sa'y-harakatlarimiz tufayli Samarqandga kelayotgan xorijiy turistlar soni 2 barobar ko'paydi. Samarqand viloyatining chekka va tog' oldi tumanlari dagastronomik va eko turizm sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish lozim, chunki Samarqand viloyatining ayrim tumanlari o'zining tabiiy musaffoligi va noodatiy turmush tarzi bilan kishilarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Misol uchun Urgut va Bulung'ur tumanlari misolida ko'radigan bo'lsak, ushbu tumanlar o'zining tog'li zonalari va sersuv daryolari, kanal va ariq zovurlari, lalmikor yerlari va shu bilan bir qatorda o'zgacha turmush tarziga egadir. Samarqandda ekoturizm ham sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Samarqand viloyati Urgut tumanida joylashgan, "Chor chinor" ziyoratgohi. Rivoyatga ko'ra, arab sarkardalaridan biri Xo"ja Abu Tolib Urgutga hukmdor bo'lib, buloq atrofida 4 dona chinor ektiradi. U vafot etgach (866-867) shu chinorlar yakunida dafn etiladi. Bu joyning yana bir nomi "Xoja Chor-chinor" deb atalishining tarixi shu voqea bilan bog'liq chor-chinor majmuasi ichida 1914-yilda Naqshbandiya tariqati ta'limoti targ'ibotchisi eshon Valixon Urgutiyning o'g'illari Shayx Muxiddinxon tomonidan qurilgan masjid bor. Masjiddan dastlab Madrasa sifatida foydalanilgan.[7, B.8]

Natijalar:

- Samarqand viloyati ekoturizm sohasida ulkan imkoniyatlarga ega;
- infratuzilmaning rivojlanishi ekoturizmni yanada ommalashtiradi;
- davlatimiz tomonidan qabul qilingan huquqiy hujjatlar sohaning barqaror rivojlanishiga asos yaratmoqda;

-turistlarning ekologik sayohatlarga bo'lgan qiziqishi ekoturizm bozorini kengaytirish imkonini bermoqda;

Xulosa. O'zbekistonda, xususan Samarqand viloyatida turizm va ekoturizm sohasini rivojlantirish uchun iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy shart-sharoitlar mavjud. Zamonaviy infratuzilma va davlat tomonidan qabul qilingan qonunlar yordamida sayyohlik salohiyatini yanada oshirish mumkin. Ekoturizm nafaqat mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, balki mahalliy aholi uchun milliy iftixor va tabiatni asrashga bo'lgan mas'uliyat tuyg'usini shakllantiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mo'minov A. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari. VIII INTERNATIONAL FORUM OF GUIDES "TOURIST AND EXCURSION ACTIVITIES: NEW CHALLENGES AND WAYS OF DEVELOPMENT", FEBRUARY 21-22, 2025, B.178
2. Muhitdinov X.S, Shukurov I.A. Samarqand viloyati mintaqasi turizm salohiyatini rivojlantirishda tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili. "Экономика и социум" №5(120)-2 2024 www.iupr.ru, -B.448
3. <https://zarnews.uz/uz/post/ekoturizm-nima-uchun-sayyohlikning-eng-muhim-yonalishi-hisoblanadi>
4. Egamberdieva L.Sh.Ekoturizm. O'quv qo'llanma. Toshkent,-2021, B.158
5. HAMIDOV O.H., NORCHAEV A.N. EKOTURIZM. Darslik, Toshkent,-2011, B.29
6. Fozilova Z, Xamroqulov O, F. Yorqulov. O'ZBEKISTONDA EKOTURIZM MARSHRUTLARINI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN.May 18-19, 2023 at Samarkand State University of Architecture and Construction Named After Mirzo Ulugbek.B.261
7. Juraqulova F.SAMARQAND VILOYATIDA GASTRONOMIK VA EKO TURIZM RIVOLANTIRISH ISTIQBOLLARI (CHOR CHINOR ZIYORATGOHI MISOLIDA).SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI 6-JILD 6-SON RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI 13.06.2023, B.8

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/8 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).